



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	



O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Normurodov X.E.

O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: xnormurodov2020@gmail.com

Abdurazakova Farangis Dilshod qizi

O'zbekiston Milliy universiteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: abdurazoqovafarangis@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston turizm industriyasida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari M. Porterning qiymat zanjiri nazariyasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda sohaning joriy holati SWOT-tahlil metodikasi yordamida o'rganilib, transport, joylashtirish va xizmat ko'rsatish bo'g'inlari o'rtasidagi integratsiya masalalari yoritilgan. Muallif tomonidan turistik klasterlar doirasida xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sohaning iqtisodiy rentabelligini oshirish modellari taklif etilgan. Yakuniy xulosalar milliy turizm mahsulotining raqobatbardoshligini ta'minlash va tarmoqlararo multiplikativ effektni ishga solishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: turizm industriyasi, qo'shilgan qiymat zanjiri, strategik drayver, turistik klaster, SWOT-tahlil, raqamli turizm, multiplikativ effekt, xizmatlar diversifikatsiyasi, iqtisodiy rentabellik, milliy turistik mahsulot, logistika integratsiyasi, servis standarti.

Abstract: This article analyzes the priority directions for the formation and improvement of the value chain in Uzbekistan's tourism industry based on M. Porter's value chain theory. The current state of the sector is examined using SWOT analysis, with particular attention to the integration of transport, accommodation, and service components. The author proposes models for increasing the economic profitability of the sector through service diversification within tourism clusters and the implementation of digital technologies. The final conclusions include practical recommendations aimed at enhancing the competitiveness of the national tourism product and activating intersectoral multiplier effects.

Key words: tourism industry, value chain, strategic driver, tourism cluster, SWOT analysis, digital tourism, multiplier effect, service diversification, economic profitability, national tourism product, logistics integration, service standards.

Аннотация: В данной статье проанализированы приоритетные направления формирования и совершенствования цепочки добавленной стоимости в туристической индустрии Узбекистана на основе теории цепочки ценности М. Портера. В исследовании текущее состояние отрасли изучено с использованием методики SWOT-анализа, а также освещены вопросы интеграции между транспортным, гостиничным и сервисным звеньями. Автором предложены модели повышения экономической рентабельности отрасли за счёт расширения диверсификации услуг в рамках туристических кластеров и внедрения цифровых технологий. Итоговые выводы включают практические рекомендации, направленные на обеспечение конкурентоспособности национального туристического продукта и активизацию межотраслевого мультипликативного эффекта.

Ключевые слова: туристическая индустрия, цепочка добавленной стоимости, стратегический драйвер, туристический кластер, SWOT-анализ, цифровой туризм, мультипликативный эффект, диверсификация услуг, экономическая рентабельность, национальный туристический продукт, логистическая интеграция, сервисный стандарт.



KIRISH

Bugungi globallashtirish davrida turizm nafaqat dam olish industriyasi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi strategik drayverlardan biriga aylandi. O'zbekiston o'zining boy madaniy-tarixiy merosi va tabiiy salohiyati bilan jahon turizm bozorida mustahkam o'rin egallash imkoniyatiga ega. Biroq, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish uchun faqatgina resurs bazasiga tayanish yetarli emas. Bunda turizm tizimida qo'shilgan qiymat zanjirini tashkil etuvchi transport, joylashtirish, umumiy ovqatlanish, servis va raqamli xizmatlar o'rtasidagi integratsiyani sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish talab etiladi. Mazkur maqolada O'zbekiston turizm xizmatlari bozorida qo'shilgan qiymat zanjirining hozirgi holati tahlil qilinib, uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari va strategik modellari ishlab chiqilgan.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev turizmning muhimligini ta'kidlagan holda, 2023-yil 11-oktabrdagi yig'ilishdagi nutqida: "Turizm — bu faqatgina sayohat emas, bu yangi ish o'rinlari, investitsiya, zamonaviy texnologiyalar va infratuzilma degani. Biz turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirishimiz shart. Buning uchun sohada xizmatlar ko'lamini kengaytirish, transport logistikasini yaxshilash va sayyohlarning mamlakatimizda qolish muddatini uzaytirish bo'yicha aniq tizim yaratishimiz lozim" [1], deb ta'kidlagan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, turizm strategik tarmoq hisoblanadi. Undagi ish o'rinlari, logistika va xizmatlar ko'lamini bevosita qo'shilgan qiymat zanjirining tarkibiy qismlaridir. Sayyohlarning mamlakatda qolish muddatini uzaytirish esa qo'shilgan qiymat zanjiri samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm klasterini yaratishning qiymat zanjiri samaradorligini oshirish masalalari jahon mamlakatlari iqtisodiyotida ham keng qamrovli mavzulardan biri bo'lib, bir qancha iqtisodchi olimlar bu haqda mulohazalar yuritgan va tahlillar olib borgan.

M. Porter tadqiqotida har bir korxona (yoki tarmoq) — bu mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish, sotish va yetkazib berish jarayonida amalga oshiriladigan faoliyat turlarining yig'indisi ekanligi, shuningdek, qiymat zanjiri tahlili tarmoqdagi raqobatbardosh ustunlik manbalarini tushunishga yordam berishi muhim, deb hisoblaydi [2].

J. Saks turizm rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro savdoda ishtirok etish va qashshoqlikni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri ekanligini asoslab beradi, chunki u xizmatlar eksporti orqali mahalliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri qiymat olib kiradi [3].

Yaqin xorij olimi V. Reutov turizm klasterida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish tarmoqlararo multiplikativ effektini ishga solishning asosiy sharti ekanligini ta'kidlaydi. Bu nafaqat asosiy xizmatlarni, balki yordamchi infratuzilmaning ham daromadlilikini oshirishini ko'rsatadi [4].

A. Aleksandrova zamonaviy turizm bozori mahsulotlar raqobati emas, balki boshqaruv tizimlari va qiymat yaratish zanjirlarining raqobatiga aylanganini ta'kidlab, ushbu yo'nalishda ilmiy tahlillar olib boradi [5].

B. To'rayev turizmda qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirishning bosh yo'nalishi bu milliy turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish va servis xizmatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish ekanligiga e'tibor qaratadi [6].

N. Xushmatov hududiy turizm salohiyatini oshirish uchun nafaqat tarixiy obidalarni saqlash, balki "dala-dasturxon" tamoyili asosida agroturizm zanjirlarini yaratish, shu orqali qishloq aholisi daromadini oshirish zarurligini ta'kidlaydi [7].


Nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda turizm klasterining qiymat zanjiri samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi. Shu sababli, ko'plab iqtisodchi olimlar ushbu masalaga alohida e'tibor qaratgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada M. Porterning qiymat zanjiri nazariyasi, tizimli tahlil va qiyosiy yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Sohaning joriy holati statistik ma'lumotlar asosida o'rganilib, mavjud imkoniyatlar va xavflar SWOT-tahlil usuli orqali baholandi. Tadqiqotda klasterli yondashuv hamda multiplikativ effektini hisoblash tamoyillari asosida milliy turistik mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish modellari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasi nafaqat xizmat ko'rsatish, balki milliy iqtisodiyotning drayver sohaslaridan biriga aylandi. Qo'shilgan qiymat zanjiri tahlili shuni ko'rsatadiki, sohadagi asosiy bo'g'inlar (transport, joylashtirish, ovqatlanish, ko'ngilochar xizmatlar) o'rtasidagi uzviylik darajasi ortib bormoqda. O'zbekiston turizm industriyasida qo'shilgan qiymat zanjirini tadqiq etish sohaning nafaqat miqdoriy (sayyohlar soni), balki sifat ko'rsatkichlarini (daromadlilik) ham baholash imkonini beradi. Michael Porter nazariyasiga tayanib, mamlakatimiz turizm mahsulotining shakllanish bosqichlarini tahlil qilganimizda, quyidagi manzara namoyon bo'ladi.



1-rasm. O'zbekiston turizm sohasida qo'shilgan qiymat yaratish zanjiri modeli [8].

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston turizm industriyasining qo'shilgan qiymat zanjiri modeli shakllantirildi (1-rasm). Ushbu model turistik mahsulotning yaratilishidan tortib, yakuniy iste'molchigacha bo'lgan 5 ta asosiy bo'g'inni o'z ichiga oladi.

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizm sohasi chiziqli va ketma-ket rivojlanish xususiyatiga ega:

1. Marketing va axborot. Bu zanjirning kirish nuqtasi bo'lib, unda mamlakatning turistik imiji shakllantiriladi. Hozirgi kunda raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar orqali sayyohlarni jalb qilish bo'g'ini eng jadal rivojlanayotgan qism hisoblanadi.

2. Logistika. Zanjirning ushbu bo'g'ini transport xizmatlarini (aviatsiya, temir yo'l va ichki transport) qamrab oladi. Tahlillarimizga ko'ra, qo'shilgan qiymatning salmoqli qismi (taxminan 30–40 %) aynan transport logistikasiga to'g'ri kelmoqda, biroq bu sohada raqobatning kuchayishi xizmatlar tannarxini optimallashtirish imkonini beradi [9].

3. Joylashtirish va servis. Mehmonxonalar va joylashtirish vositalari zanjirning barqarorlik bo'g'ini hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mehmon uylari va oilaviy tadbirkorlikning o'sishi ushbu bo'g'inda mahalliy aholi daromadlarining ortishiga olib kelmoqda.

4. Iste'mol. Bu bo'g'in umumiy ovqatlanish, gidlar xizmati va hunarmandchilikni o'z ichiga oladi. Aynan shu nuqtada sayyohlarning naqd pul mablag'lari bevosita xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga o'tadi va iqtisodiy multiplikativ effekt hosil qiladi.

5. Qo'shimcha xizmatlar. Zanjirning yakuniy va eng istiqbolli bo'g'ini hisoblanadi. Sog'lomlashtirish, interaktiv master-klasslar va eko-turlar kabi xizmatlar sayyohning mamlakatda qolish muddatini o'rtacha 1,5–2 kunga uzaytirish imkonini beradi [10].

Diagramma asosida olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston turizm tizimida qo'shilgan qiymatni oshirishning ustuvor yo'nalishi — bu zanjirning to'rtinchi va beshinchi bo'g'inlarini, ya'ni iste'mol va qo'shimcha xizmatlarni diversifikatsiya qilishdir. Zanjirning dastlabki bo'g'inlari infratuzilmaviy xarakterga ega bo'lsa, yakuniy bo'g'inlar sof iqtisodiy rentabellikni ta'minlaydi. Shuning uchun klasterli yondashuv orqali ushbu bo'g'inlar o'rtasidagi vertikal bog'liqlikni mustahkamlash milliy turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval. O'zbekiston turizm tizimida qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirishning SWOT-tahlili [11-13]

Yo'nalishlar	Ichki va tashqi omillar
Kuchli tomonlar	YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan boy madaniy-tarixiy meros obyektlarining mavjudligi; Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat darajasidagi kuchli siyosiy iroda va tadbirkorlar uchun berilayotgan keng ko'lamli soliq hamda bojxona imtiyozlari; Dunyoning ko'plab davlatlari uchun viza rejimining liberallashtirilganligi va "E-visa" tizimining joriy etilishi; Milliy oshxona xilma-xilligi va xalqimizga xos mehmondo'stlik an'analarining xalqaro miqyosdagi yuqori jozibadorligi.



Zaif tomonlar	Transport logistikasi, xususan, aviachiptalar va shaharlararo temir yo'l qatnovlari narxining yuqoriligi; Qiymat zanjirining «Qo'shimcha xizmatlar» bo'g'ida raqamlashtirish va innovatsion yechimlar darajasining pastligi; Markazdan olis bo'lgan hududlarda xalqaro standartlarga javob beradigan servis va infratuzilmaning yetarli emasligi; Turizm sohasida malakali o'rta bo'g'in menejerlari, professional gid-tarjimonlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning tanqisligi.
Imkoniyatlar	Ziyorat turizmi, ekoturizm va agroturizm zanjirlarini yangi yo'nalishlar bilan kengaytirish; Qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan «Bir tur — butun mintaqah» tamoyili asosida o'zaro integratsiyalashgan zanjirlarni yaratish; «Smart Tourism» (aqlii turizm) texnologiyalarini barcha bo'g'inlarga joriy etish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish; Bozorga yangi xalqaro brend mehmonxonalarni va loukoster (arzon) aviakompaniyalarni faol jalb qilish.
Xavflar	Mintaqaviy va global miqyosdagi siyosiy beqarorliklarning sayyohlar oqimi va xavfsizlikka salbiy ta'siri; Qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqalar) tomonidan turizm bozorida raqobatning tobora kuchayib borishi; Iqlim o'zgarishi va global suv tanqisligining tabiiy turizm obyektlari ekotizimiga zarar yetkazishi; Global iqtisodiy inflatsiya va valyuta kurslari tebranishi natijasida xalqaro sayohatlar narxining keskin oshishi.

Ushbu ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'sirini baholash shuni ko'rsatadiki, ichki zaifliklarni (logistika va servis) tashqi imkoniyatlar (raqamlashtirish va integratsiya) hisobiga bartaraf etish turizm qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirishning asosiy strategik yo'nalishidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston turizm tizimida qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, sohani strategik drayverga aylantirish uchun faqatgina resurs bazasiga tayanib qolish yetarli emas. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, bugungi kunda mamlakatimiz turizm mahsulotining shakllanishida logistika va transport bo'g'ini salmoqli (30–40 %) ulushga ega bo'lsa-da, iqtisodiy samaradorlikning asosiy nuqtasi aynan «iste'mol» va «qo'shimcha xizmatlar» bo'g'inlariga ko'chmoqda.

O'tkazilgan SWOT-tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, O'zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi va viza rejimining liberallashtirish kabi kuchli tomonlaridan samarali foydalanish uchun transport xarajatlarning yuqoriligi va hududiy infratuzilmadagi uzilishlar kabi zaif jihatlarni tizimli ravishda bartaraf etish lozim. Ayniqsa, «Smart Tourism» texnologiyalarini zanjirning barcha bosqichlariga joriy etish operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar shaffofligini ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot xulosalariga ko'ra, qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilash maqsadga muvofiq:

Birinchidan, turistik klasterlar doirasida «dala-dasturxon» va «interaktiv master-klass» kabi qo'shimcha xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali sayyohlarning mamlakatda qolish muddatini o'rtacha 1,5–2 kunga uzaytirishga erishish mumkin.

Ikkinchidan, transport logistikasidagi narx siyosatini optimallashtirish va loukoster xizmatlarini kengaytirish orqali zanjirning kirish nuqtasidagi to'siqlarni kamaytirish lozim.

Uchinchidan, servis sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun professional gidlar va o'rta bo'g'in menejerlarini tayyorlash tizimini klasterli yondashuv asosida yo'lga qo'yish zarur.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston turizm industriyasida qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish — bu marketingdan tortib, sotuvdan keyingi xizmatlarga bo'lgan barcha jarayonlarning o'zaro uzviyligini ta'minlash demakdir. Bu esa nafaqat xizmatlar eksportini oshirish, balki hududiy iqtisodiyotni yuksaltirish va aholi bandligini ta'minlashda multiplikativ effekt yaratadi.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati rasmiy xabarlari. — URL: www.president.uz
2. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, p. 36.
3. Sachs, J. D. (2005). The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. — Penguin Press, p. 12.
4. Reutov, V. E. (2012). Klaster yondashuvi asosida mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirish // Ekonomicheskoe nauki, p. 168.
5. Aleksandrova, A. Yu. (2016). Mejdunarodnyy turizm. — Moskva: KnoRus, p. 154.



6. To'rayev, B. X. (2018). Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. – Toshkent, p. 42.
7. Xushmatov, N. X. (2021). Agrar sohada innovatsion rivojlanish va qo'shilgan qiymat zanjiri // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, p. 11.
8. Porter, M. (1985) va UNWTO (2019) metodologiyalari asosida muallif ishlanmasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin ko'paytirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-9-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6759637>
10. World Tourism Organization (UNWTO). (2019). Global Report on Cultural Routes of the Silk Road. – Madrid: UNWTO, pp. 32–34.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-135-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6456786>
12. Turaev, B. X. (2018). Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. – Toshkent: Fan va texnologiya, p. 88.
13. World Economic Forum. (2024). Travel & Tourism Development Index 2024: Insights from the T&T Development Index.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>